

ASALARILAR OILALARINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI (ADABIYOTLAR TAHLILI)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11530034>

Tajiboyev Muhammadjon Maxmudovich

Matyakubov Olimjon Sheraliyevish

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya

Tajribada tekshirilgan sertuxum ona va erkak arilarni tanlash asalarichilikda yaxshi nasl olish uchun katta ahamiyatga ega. Asalarilarning sifati ular naslidan olingan natijalarga (oilaning o'sish, nektar yig'ish va uni asalga aylantirish sur'ati, mumdan inchalar qurish qobiliyati, yuvoshlik va x. k.) qarab belgilanadi

Kalit so'zlar

Tuxum, qurtcha, ichak, yurak, havo naychalari, buyrak, o'ziga xos ip, g'umbak, pilla, ko'ch, shlyef.

Asalarining rivojlanishi. Yangi qo'yilgan tuxumning rangi oq, uzunligi 1,5 - 1,6 mm bo'ladi. U mustahkam qobiq bilan o'ralgan. Tuxumning ichida tuxum xujayrasi, yadro va pushtning rivojlanishi uchun zarur oziq bo'lgan sariq modda bo'ladi.

Tuxum xolati 3 kun davom etib, mana shu vaqt ichida pushtning kuchli rivojlanish davri kechadi. Uchinchi kunning oxiriga kelib, tuxum inchaning og'zi tarafdin pastga qarab sekin-asta egila boshlaydi. Asalarichilar 3 kunlik tuxum qurtchaga aylanayotganini ajrata oladilar. Uchinchi kunning oxiriga kelib, to'liq tuzilgan kichkina qurtcha tuxumini yorib chiqadi. U oq rangda bo'lib, oyog'i ham, ko'zi xam bo'lmaydi. Qurtcha tanasi, bosh qism va aniq ajralib turuvchi 13 ta xalqachasimon bo'linmalardan tashkil topadi. Qurtcha tanasining ko'p qismini o'rta ichak egallaydi. Qurtcha tanasining old tarafida og'zi bo'lib, undan keyin old ichak o'rta ichak bilan tutashgan. O'rta ichak oxiri orqa ichak bilan tutashmagan. Shuning uchun qurtcha o'zining butun rivojlanish davrida to'plangan axlatini tanasidan tashqariga chiqarmaydi natijada oziq ifloslanmaydi. Qurtcha hayotining birinchi kuni sut ozuqasida suzib yuradi. Qurtchalarning yurak qismi tanasining bel tarafida joylashgan bo'lib, naychasiimon 12 ta bir xil kameradan tuzilgan. Qurtchaning tanasida havo naychalari bo'lib, u tanasining yon tarafidagi havo olish teshikchalari bilan tutashgan. Qurtchada siydik, chiqindi chiqarish, buyrak

vazifasini o'rta ichak atrofiga joylashgan to'rtta malpigiy naychalari bajaradi. Bu naychalarning xam xuddi o'rta ichak kabi chiqarish teshigi yo'q. Qurtchada o'ziga xos ip ishlab chiqaruvchi bez bo'lib, bu bez maxsus suyuqlik chiqaradi. Mana shu ip yordamida qurtcha o'zini g'umbakka o'raydi. Jinsiy organi esa ikkita o'simta ko'rinishiga ega. Qurtcha incha ichida aylanib xarakatlanish evaziga oziq moddasini yuta boshlaydi. Qurtchalar oziqlanadigan sut oqsil, shakar, yog' va mineral tuzlar, vitaminlar hamda fermentlarga boy. To'yimli oziq bilan oziqlanish xisobiga qurtcha tez o'sadi. Tuxumdan chiqqan qurtchaning vazni 0,11 mg bo'lib, birinchi sutkaning oxiriga kelib uning vazni 0,52 mg ga, uchinchi sutkaning oxiriga kelganda esa 20 mg ga yetadi. Shunday qilib, qurtchaning og'irligi uch kun ichida 190 marotaba ortadi. Uch kun davomida qurtcha sut bilan oziqlansa, uchinchi kunning oxiridan boshlab asal va gulchangi aralashmasi bilan oziqlanadi. Oziqni boquvchi arilar qurtchalarning og'ziga solib qo'yadi. Qurtcha rivojlana borib, oltinchi kunning oxiriga borganda uning og'irligi 143 mg. ga yetadi. Qurtcha rivojlanish borasida bir necha marotaba o'z tanasiga sigmay qolgan terisini almashtiradi va uning o'rniga yangisi paydo bo'ladi. Oradan 5-5,5 kun o'tgach, u oziqlanishdan to'xtaydi. U inchaga sigmay qolgandan keyin arilar inchaning ustini yupqa mumparda bilan berkitadilar. Usti berkitilgan inchada qurtcha pilla o'rashdan oldin inchaning bir burchagiga axlatini chiqaradi va g'umbakka o'raladi. Oradan 24 soat o'tgandan keyin pilla o'rash tugaydi va u xarakatlanmay qolib, oxirgi marta terisini almashtirib qo'g'irchoq xolatga o'tadi. Shundan so'ng uning tanasida murakkab o'zgarishlar kechadi. Unda qurtcha xolatidagi organlari yo'qolib, uning o'rniga katta yoshdagi arilarning organlari paydo bo'la boshlaydi. Inchaning usti berkitilgandan keyin oradan 12 kun o'tgach qo'g'irchoq xolatdagi rivojlanish tugaydi, u to'liq yetilgan ariga aylanadi va inchaning ustini qirqib tashqariga chiqadi.

Ona asalarilarning rivojlanishi. Arilar ona arini aloxida katta hajmdagi inchalar, ya'ni g'umbakda yetishtiradilar. Ko'chga chiqishga tayyorgarlik ko'rayotgan arilar ona ari g'umbagini katak mumpardalarning yon tarafiga, ko'zga tashlanmaydigan joylariga, g'umbakning asosiga kosacha quradilar. Tasodifan ona ari halok bo'lsa, ular ari inchasidagi 1-2 kunlik qurtchalardan inchaning og'zini kengaytirib, yirik g'umbak tortib, o'zlariga ona ari yetishtirib chiqaradilar.

Ari oilasi uchun qurtchalarni boqish va yetishtirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bahor va yoz oylarida arilarning organlari tez ishdan chiqib, ular uchib ketayotgan paytlarida ham o'lishi mumkin. Kuz paytida yetishtirilgan ishchi arilar. Kam ish bajarganliklari evaziga ular ko'p yashash qobiliyatiga ega bo'lib, bahor paytigacha yashaydilar. Qishlab chiqqan arilar baxorning birinchi oylarida yashab, jadal ish

bajaradilar, ya'ni bitta qurtchani boqib, so'ngra halok bo'ladilar. Ari oilasi butun bahor va yoz oylarida yaxshi kuchga ega bo'lishi va tez rivojlanishi uchun oilada baquvvat va sog'lom ona ari bo'lishi kerak.

Ona arining tuxum qo'yishi. Ona arilar uyidan qaytgach (urug'langandan so'ng), 34-48 soatdan keyin tuxum qo'ya boshlaydi. Urchigan ona asalari tuxum stadiyasi ga kirganda ishchi asalarilar uni doimo o'rab yuradilar va bu arilar ona arini «kuzatib yuruvchi» arilar deb ataladi. Kuzatib yuruvchi arilar doimo bosh tarafi bilan ona ariga qaragan bo'lib, ajralmagan xolda ona arini mo'ylovlari bilan yalab tekshirib turadilar xamda xartumchalari yordamida ularni maxsus modda - ari suti bilan oziqlantirib turadi. Ari suti to'yimli, tez hazm bo'ladi.

Ari qurtchalarinnng rivojlanishi va oziqlanish rejimi

Rivojlani sh oziqlari	Ish chi ari	On a ari	Er kak ari	Oziqlanishi		
				Ishc hi ari	Ona ari	Erkak ari
Tuxumi	3	3	3	-	-	-
Qurtchasi	6 kun	5-6 kun	7 kun	3 kun sut bilan,3 kun asal	5.5 kun faqat sut bilan	3, 5 kun sut bilan, 3. 5 kun asal va gulchangi aralashmasi bilan
G'umbak	12 kun	7,5- 8 kun	14 kun	-	-	-
Umumiy rivojlanish davri	21 kun	16- 17 kun	24 kun	-	-	-

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ona ari hayotining birinchi va ikkinchi yilida eng maxsuldor bo'lib, ko'p tuxum qo'yadi. Shuning uchun aksari asalarichilar ikki yoshdan katta ona asalarilarni oilada saqlamaydilar. Faqat asal yig'ishda va ko'p mumkatak tortadigan ko'rsatkichlarga ega bo'lgan, muloyim, ko'chga chiqmaydigan naslli ona arilarni qoldirish mumkin. Bunday ona asalarilardan zotli yangi yosh ona ari yetishtirishda foydalaniladi. Tuxum qo'yish paytida ona ari avval qornini tuxum qo'yadigan inga tushirib, inchaning katta- kichikligini qorin kismida joylashgan sezish tuklari yordamida tekshiradi: agarda inchaning xajmi kichkina bo'lsa, u xolda otalangan tuxum qo'yadi. Otalangan tuxum qo'yish uchun ona ari tuxumdon naychalaridan juft va juft bo'lmagan tuxum yo'li orqali tushib kelayotgan tuxumga urug' xaltachasidan erkaklik suyuqligidan bir tomchi qo'shadi va tuxum otalana boshlaydi, ya'ni qorin qismini inchaga tushirganda qorin qismidagi tuklar incha devorini sezmasa, u xolda ona ari otalanmagan tuxum qo'yadi. Tuxum qo'yish jarayoni jadal bo rishi uchun incha sifatli ko'rilgan va toza

bo'lishi kerak. Aks xolda ona ari tuxum qo'ymaydi. Undan tashqari, ona ari qo'yilgan tuxumni boqadigan ishchi arilar bo'lmasa xam tuxum qo'ymaydi yoki tuxum qo'yishni kamaytiradi. Demak, incha toza bo'lishi yoki o'z vaqtida mumparda bilan qoplangan yangi mumkatak ramka bilan ta'minlanishi zarur. Ona ari uya xarorati 32°C dan past bo'lmaganda tuxum qo'ya boshlaydi. Bir mavsumda bitta ona asalari 150-200 mingta tuxum qo'yishi mumkin. Bu jarayon normal borishi uchun tabiatda nektar yoki uyada yetarli miqdorda asal va gulchangi bo'lishi kerak. Yozning oxiri - avgust oyida va sentyabrning birinchi yarmida tabiatda nektar kamaygan vaqtda ona arilar tuxum qo'yishni kamaytiradi. Ammo sifatli mumkatak ramka xamda gulchangi va nektar ko'p bo'ladigan joylarda tuxum qo'yaveradi.

Xulosa. Tajribada tekshirilgan sertuxum ona va erkak arilarni tanlash asalarichilikda yaxshi nasl olish uchun katta ahamiyatga ega. Asalarilarning sifati ular naslidan olingan natijalarga (oilaning o'sish, nektar yig'ish va uni asalga aylantirish sur'ati, mumdan inchalar qurish qobiliyati, yuvoshlik va x. k.) qarab belgilanadi.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Isamuhamedov A.I., Nikadambayev H.K. "Asalarichilikni rivojlantirish asoslari" O'quv qo'llanma. "Sharq" nashriyoti. Toshkent. 2013 yil.
2. Nikolas Vidal - Naquet. Honeybee Veterinary Medicine: Apis mellifera L., Oxford. London ECIN 8TS, UK. Reprinted 2018, 2020, 260 p.
3. Haqberdiyev P.S., Qurbonov F.I, Qarshiyeva V. "Baliq va asalari kasalliklari" O'quv qo'llanma. "Navro'z" nashriyoti. Toshkent, 2016 yil.
4. N.F.Kraxotin. «O'zbekistonda asalarichilik» Toshkent.Mehnat, 1985.
5. Tajiboev M. M. et al. ANDIJON VILOYATINING TOG'LI SHAROITIDA ASALARILAR OILASINING KUCHI // Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization: International Scientific and Practical Conference. - 2023. - T. 4. - C. 7-11.
6. Тажибоев М. М. ЁЗНИНГ ИНТЕНСИВ ВА ДАВОМИЙЛИГИ ТУРЛИ ХИЛ ЗОТДАГИ АСАЛАРИЛАР МАХСУЛДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ // Евразийский журнал медицинских и естественных наук. - 2023. - Т. 3. - №. 5. - С. 14-16.